

TURKISTONNI JUMBUSHGA KELITIRGAN QIRG`INABOD INQILOB YILLARIDA  
HAM SAHNADAN TUSHMAGAN “PADARKUSH”

**Esonova Mehriniso Umidjon kizi**

*O`zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi Yurisprudensiya(islom huquqi) 1- kurs  
talabasi e-mail:esonovamehriniso9@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola Turkiston jadidchilik harakatining rahnamosi, jadidlarning otasi, publisist, dramaturg, ma`rifatparvar bo`lgan Mahmudxoja Behbudiyning “Padarkush” dramasini inson ongiga bo`lgan ta`sirini o`rganadi. Birinchi sahnaga chiqazilganda juda tez fursatda biletleri sotilib ketganligining, insonlar birinchi dramani ko`rish uchun biletni o`z bahosidan ikki-uch baravar ko`proqqa bo`lsa ham sotib olishganligining sababi “Padarkush”ning insonga bo`lgan yuksak ta`siridir. Turkistonda bo`lgan qirg`inabod inqilob yillarida ham sahnadan tushmaganining sababini ushbu maqola tadqiq etishga harakat qiladi.*

**Kalit so`zlar:** *Jadid, yangi usul-maktablari, teatr, maorif, matbuot, jaholat, ma`rifatsizlik*

**Abstract:** *This article examines the influence of the drama "Padarkush" on human consciousness by Mahmudhoja Behbudi, the leader of the Turkestan jadid movement, father of jadids, publicist, playwright, and enlightener. The reason why the tickets were sold out very quickly when the first show was released, and people bought tickets for two or three times more than their price to see the first drama, is an expression of the high influence of "Padarkush" on people. This article tries to research the reason why did not disappear from the stage even during the years of the revolution in Turkestan.*

**Key words:** *Jadid, new methods-schools, theater, education, press, ignorance, lack of enlightenment*

IX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda mustabid tuzumga qarshi jadidchilik harakatlari avj oldi. Ushbu harakatlarning yorqin vakili Mahmudxo`ja Behbudiydir. Hoji Muinning ma`lumotlaruga qaraganda Behbudiy 1875-yil 19-yanvar (hijriy 1291-yil 10-Zulhijja) Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog`ida diniy olim, ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo`ja Solihxo`ja o`g`li Turkistonlik, shajaralari Ahmad Yassaviyga borib taqaladi. Ona tomondan bobosi Niyozxo`ja urganchlik bo`lib, Amir Shohmurod davrida Samarqandga ko`chib kelgan.

Dastlab madrasada so`ng Buxoroda tahsil olgan Mahmudxo`ja Behbudiy 1899-1900 yillarda buxorolik do`sti Hoji baqo bilan haj safariga yo`lga chiqishadi. Safar, dunyoni ko`rish uning fikrlashi va dunyoqashini tubdan o`zgarishiga sabab bo`ladi. Turkistonni rivojlanishdan orqada qolganidan ko`ngliga millatning g`ami tushadi. Bor e`tiborini yoshlarni ilm-ma`rifatli qilib tarbiyalashga qaratib, yangi usul maktablarini ochadi, kitob darsliklar ishlab chiqadi.

Ammo asrlar mobaynida jaholat botqog`iga botgan millatni ma`rifatli qilish uchun bu islohotlarning o`zi ozlik qilardi. Ma`rifat uchun birgina maktab kifoya qilmasdi.

Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo`lmoq kerak edi. Binobarin, millat uchun shunday oyna kerak ediki, unda u o`z qabohatini ham, malohatini ham ko`ra olsin

Mana shu ehtiyojlarni qondirish uchun Behbudiy teatr va matbuot sari qadam tashlashdi. 1911-yil o`zbek dramachiligining hamma yakdil e`tirof etgan “Padarkush” birinchi dramasi uning qalami ostida dunyoga keladi. Bir qancha vajlar(siyosiy,ijtimoiy) sabab drama 1913-yil bosib chiqariladi. Kitobidagi “Borodino janggi va Rossiyaning fransuzlar bosqinidan halos bo`lish yubileyiga bag`ishlanadi” degan yozuv va uning Tiflis senzurasining ruhsati bilan chop etilishi shuni kursatadiki, ish oson ko`chmagan. Pyesa bosilib chiqqandan keyin ham uni sahnaga qo'yish uchun bir yil vaqt ketdi. Muallif bu haqidagi xatlarga javoban kinoyamuz: “Turkistonda bekor odam yo'q, xalq uchun ishlasa. Bekor kishi yo'q, teatru sahnasiga chiqib, “masxarabozlik” qilsa”, deb yozgan edi.

“Padarkush”- o`zbek dramaturgiyasining ilk namunasi bo`lib, uni hamma bir ovozdan tan olgan. Mutaxassislar uni janr va mazmun jihatidan yangi o`zbek adabiyotini boshlab bergan asar sifatida baholaydi. Muallif tomonidan “Milliy fojia” deb nomlangan 3 parda va 4 sahnadan iborat ushbu drama hajmi jihatidan juda ixcham, nihoyatda sodda va mazmunan jonli. Unda jaholat va jaholat, o`qimagan bolaning buzuq yo`llarga tushib, o`z otasini o`ldirishi haqida hikoya qilinadi. Oldi-ortini o`ylamaydigan boyning Toshmurod ismli o`g`li bor. O`g`li o`qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga quloq solmaydi, o`g`lini tarbiyalamaydi, natijada ko`cha bezorilariga qo`shilib ketadi. Restoranda maishatga puli yetmaydi, lekin kechasi do`stlarini uyiga olib keladi. Boy uyg'onib, ularni payqab qoladi. Ammo ular boyni o`ldirib, pulini olib ketishadi.

Jaholat va ma`rifatsizlik girdobiga otani ham, bolani ham o`z domiga tordi. Butun xalq shu ahvolga tushib qolsa-chi?!..

“Padarkush” ilk bor 1914-yil 15-yanvarda Samarqandda sahnaga qo'yilgan.“Xalq ko`p keldi, uch-to`rt yuz kishi bilet bo`lmagani va u yerda joy yo`qligi uchun qaytib ketdi.... .. Belatlar bir-ikki kun avval yoshlarni g`ayrati bilan sotilib tamom bulub edi. Ba'zi kishilar belatlarini ikki bahog`a foidasi bilan boshqa`ga sotdilar. Soat ettidan minglab halq ibrathona`ga xujum qilgan. Ammo belat yo`q Uch sum berib, tikka turmoq`ga ham rozi, yana yer yo`q.. ”, deb yozadi mahalliy matbuot. Ajoyib holat “Padarkush” qanday ta`siri bor ediki, insonlar uni ko`rish uchun yog`ilib kelishibdi? Ehtimol uning muallifi Turkistonning taniqli kishilaridan bo`lganligi uchundir, balki 1913-yilda chop etilgan “Padarkush”ni ko`pchilik mutoala qilgan va uning sahnalashtirilishi qanday bo`lishiga qiziqishgan. Eng muhimi esa ular sahnada va asarda o`zlarini ko`rishgan, afsuski, jaholat botqog`ida, ma`rifatdan uzoq, ilmsiz kishilar xalqning o`zi edi. Shu sababli ham uning insonga ta`siri yuqori bo`lgan ehtimol. Chamasi, asarning ijrosi ham baland saviyada bo`lgan. Taqrizdagi "Rus, yahudiy va musulmonlar tahsin etardi. Hatto 20 yildan beri teatr mamuriyatidagi odamlar tarif qilurdi... Aqolidagi olqish ibrathonani gumbirlatur..." degan jummlar shunga ishora qiladi.

1914-yil 27-fevralda Toshkentda asos solingan Avloniyning “Turon” truppasi Kolizeyda (hozirgi Savdo birjasi binosi) o‘z faoliyatini shu “Padarkush” bilan boshlagan. Spektakldan oldin Munavvarqori teatrning jamiyat hayotidagi o‘rni va o‘rni haqida ma’ruza qiladi. Boy rolini Abdulla Avloniyning o‘zi ijro etadi. Mahalliy matbuot bu kunni “tarixiy kun” deb yozadi.

1914—16-yillarda «Turon» truppasi bu spektakl bilan butun Farg‘ona vodiysini aylanib chiqadi. Turkistonni larzaga solgan “Padarkush” qirg‘inabod inqilob yillarida ham sahnadan yo‘qolmadi. U bir tomondan xalqni ma’rifat va taraqqiyot sari da’vat etishda, ikkinchi tomondan, professional o‘zbek teatri va dramaturgiyasining vujudga kelishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Begali Qosimov. Mahmudxo`ja Behbudiy. Xurshid davron kutubxonasi
2. “Jadidlar” to`plami. Yoshlar ishlari agentligi
3. Mahmudxo`ja Behbudiy “Padarkush”dramasi ziyouz.com